



UDK:327.1(8)

Orasta ZIYATOVA,
Toshkent shahridagi 282-maktab o'qituvchisi
E-mail: orasta.murodillayevna@mail.ru

O'zbekiston milliy universiteti dotsenti, tarix fanlari doktori O. Radjabov taqrizi asosida

MODERN MIGRATION PROCESSES: CHARACTERISTICS, TRENDS, AND THEIR GLOBAL IMPACT

Annotation

This article analyzes the modern characteristics, main trends, and driving factors of global migration processes. Based on data from international organizations and academic research, the author examines key migration challenges and presents conclusions and recommendations for effective governance.

Key words: Migration, global processes, labor migration, international policy, demography, migration policy.

СОВРЕМЕННЫЕ МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ: ОСОБЕННОСТИ, ТЕНДЕНЦИИ И ИХ ГЛОБАЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ

Аннотация

В данной статье анализируются современные особенности, основные тенденции и факторы, влияющие на глобальные миграционные процессы. Автор, опираясь на данные международных организаций и научных исследований, рассматривает актуальные миграционные проблемы и предлагает собственные выводы и рекомендации по их эффективному регулированию.

Ключевые слова: Миграция, глобальные процессы, трудовая миграция, международная политика, демография, миграционная политика.

ZAMONAVIY MIGRATSIYA JARAYONLARI: XUSUSIYATLAR, TENDENSIYALAR, TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy migratsiya jarayonlarining turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va xalqaro miqyosdagi ta'sirlari tahlil etilgan. Qiyosiy tahlil orqali migratsiyaning ichki va tashqi shakllari, mehnat, majburiy va noqonuniy migratsiya turlari o'rtasidagi farqlar yoritilgan. Maqolada shuningdek, migratsiya siyosatining davlat va jamiyatga ta'siri hamda uning fuqarolik institutlari bilan bog'liq jihatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, transmilliy jarayon, diaspora, mehnat muhojiri, qaytish migratsiyasi, «yumshoq kuch», tashqi siyosat.

Kirish. Bugungi globallashtirish sharoitida migratsiya — insonlarning muayyan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy yoki tabiiy omillar ta'sirida o'z yashash joyini vaqtincha yoki doimiy ravishda almashtirish jarayoni — inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Ilmiy adabiyotlarda migratsiyaga turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, ular umumiy ma'noda insonlarning geografik makonda harakatlanishi, mamlakat ichidagi yoki davlatlararo doiradagi ko'chishi bilan bog'liq jarayon sifatida ko'riladi. Masalan, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ta'rifiga ko'ra, migratsiya — bu shaxsning (yoki shaxslar guruhining) bir davlat hududidan boshqasiga ko'chishi bo'lib, u vaqtinchalik yoki doimiy, erkin ixtiyoriy yoki majburiy shakllarda yuzaga kelishi mumkin [1]. Shu bilan birga, Demografik tadqiqotlar xalqaro instituti migratsiyani “insonlar harakatining tizimli shakli va jamiyatning demografik tuzilishiga ta'sir qiluvchi asosiy elementlardan biri” sifatida ta'riflaydi [2].

Migratsiya jahon miqyosidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti va BMTning aholishunoslik bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda dunyo bo'yicha 281 millionga yaqin xalqaro migrant qayd etilgan bo'lib, bu dunyo aholisining taxminan 3,6 % ini tashkil etadi [3]. Bu

raqamlar migratsiyaning global miqyosdagi ommalashuvi, uning iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta'sirini yanada teranroq tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi. Migratsiya jarayonlarining takomillashuvi, transmilliy migratsiya oqimlarining o'sishi, qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlariga ham ta'sir etmoqda [4]. Shu sababli, zamonaviy migratsiya muammosini chuqur o'rganish, uni boshqarish va uning ijtimoiy oqibatlarini anglash bugungi kun ilmiy va amaliy salohiyat uchun dolzarb hisoblanadi.

Migratsiya jarayonlarining asosiy xususiyatlari.

Zamonaviy migratsiya bir necha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular jahon miqyosida qayd etilmoqda [5]. Birinchidan, migratsiya jarayonlari global tus oldi — ya'ni faqat ma'lum mintaqalar emas, balki barcha qit'alarda kuzatilmoqda. Ikkinchidan, mehnat muhojirligi hali ham migratsiyaning ustuvor shakli bo'lib qolmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlardan Yevropa, Amerika va boshqa xorijiy davlatlarga oqim keskin o'sdi [6]. Uchinchidan, majburiy migratsiya (qochqinlik, ichki ko'chish) soni ham oshib bormoqda. Urushlar, ekologik inqirozlar va siyosiy zo'ravonliklar natijasida 2024 yilda dunyo bo'yicha 120 milliondan ziyod odam o'z uyini tark

etgan [7]. Bunday holatlarda migrantlar inson huquqlari nuqtai nazaridan himoyasiz ahvolga tushib qolmoqda. Migratsiya turlari va ularning qisqacha ta'riflari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Миграция тури	Таърифи	Муддати/худудийлиги	Хукукий макоми	Ўзига хос хусусиятлари
Ички миграция	Мамлакат ичидаги кўчишлар	Ички	Қонуний	Қишлоқдан шаҳарга, минтақавий бўлинма
Халқаро миграция	Бир давлатдан бошқасига кўчиш	Трансчегаравий	Қонуний/ноқ.	Иқтисодий, сиёсий ёки таълим сабабли
Эмиграция	Ўз мамлакатини тарк этиш	Халқаро	Қонуний/ноқ.	Мамлакатдан чиқиб кетиш
Иммиграция	Бошқа мамлакатга келиб яшаш	Халқаро	Қонуний/ноқ.	Янги муҳитга мослашиш
Меҳнат миграцияси	Ишлаш мақсадида кўчиш	Ички/халқаро	Қонуний/ноқ.	Валюта йўллаш, муваққатлик
Вақтинчалик миграция	Қисқа муддатга (мавсумий) кўчиш	Ички/халқаро	Қонуний	Қишлоқ хўжалиги, қурилиш соҳалари
Доимий миграция	Доимий яшаш мақсадида кўчиш	Халқаро/ички	Қонуний/ноқ.	Фуқаролик олиш, репатриация
Қонуний миграция	Қонуний ҳужжатлар асосида	Барча турлар	Қонуний	Давлат назорати остида
Ноқонуний миграция	Қонуний ҳужжатларсиз кўчиш	Халқаро	Ноқонуний	Чегара бузилиши, хавфсизлик муаммоси
Мажбурий миграция	Уруш, офат, таъқиблар сабабли кўчиш	Халқаро/ички	Турлича	Қочқинлик, ички кўчиришлар

Migratsiyaning zamonaviy tendensiyalari

Migratsiya jarayonlariga oid tendensiyalar – bu turli mamlakatlarda, mintaqalarda va global miqyosda kuzatilayotgan doimiy va ko'p yillik migratsiyaviy o'zgarishlar, harakatlar va yo'nalishlarni anglatadi. Ushbu tendensiyalar muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va texnologik omillar ta'sirida shakllanadi hamda o'zgarib


boradi. Zamonaviy dunyoda migratsiya faqatgina aholining joydan-joyga ko'chishi emas, balki u globallashuv, mehnat bozoridagi talab, xavfsizlik masalalari, inson huquqlari va integratsiya kabi murakkab muammolarni qamrab olgan keng ko'lamli ijtimoiy jarayon hisoblanadi [9].

Zamonaviy migratsiya jarayonlarining asosiy tendensiyalari

Tendensiya	Tafsilotlar
Yuqori ko'chish sur'ati	Bir yilda 280 millionga yaqin inson xalqaro migratsiyada qatnashmoqda. Bu dunyo aholisining taxminan 3,6%ini tashkil etadi (IOM, 2022; UN DESA, 2023).
Mehnat migratsiyasining o'sishi	Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlardan Yevropa, Rossiya va AQShga nisbatan doimiy mehnat muhojirligi oqimi oshmoqda (ILO, 2021).
Majburiy migratsiya o'sishi	Qochqinlar va ichki ko'chirilgan shaxslar soni yil sayin ortib bormoqda. Suriya, Afg'oniston, Ukraina, Sudan kabi mamlakatlar asosiy manbalar hisoblanadi (UNHCR, 2024).
Intellektual migratsiya (brain drain)	Rivojlangan mamlakatlar yuqori malakali kadrlarni (ilmiy xodimlar, shifokorlar, muhandislar) jalb etmoqda. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarda kadrlar tanqisligiga olib kelmoqda (OECD, 2023).
Ayollar va oilalar migratsiyasi	Ilgari asosan erkaklar migrant sifatida chiqishgan bo'lsa, hozirda ayollar va oilalar ulushi keskin ortib bormoqda. Bu demografik va ijtimoiy muvozanatga ta'sir etmoqda (IOM, 2022).
Migratsiyaning siyosiylashuvi	Ayrim davlatlarda migratsiya ichki siyosiy tortishuvlar, saylovoldi muhokamalari va populistik siyosatning markaziga aylangan (Goodwin, 2018).
Migratsiyani cheklash siyosatlar	Yevropa va AQSH migratsiyani cheklash siyosatiga o'tmoqda, chegara nazorati kuchaytirilmoqda, asossiz deportatsiyalar soni ortib bormoqda (ECRE, 2023).
Raqamlashtirish va nazorat texnologiyalari	Migratsiya siyosatlarida biometrik nazorat, raqamli identifikatsiya va migratsiya boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimlari keng joriy etilmoqda (OECD, 2023).
Integratsiya va moslashuv muammolari	Qabul qiluvchi mamlakatlarda migrantlarni jamiyatga moslashtirish, til o'rgatish, ta'limga jalb qilish va ish bilan ta'minlash muammolari dolzarb hisoblanmoqda (Scholten, 2021).

Quyidagi grafikda zamonaviy migratsiya jarayonlariga xos bo'lgan asosiy tendensiyalar va ularning ta'sir

darajalari dan 10 gacha) aks ettirilgan. (1



Vizual tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda migratsiya masalasi ko'p qirrali va global miqyosda dolzarb hisoblanadi [11]:

Yuqori ko'chish sur'ati (9 ball) – xalqaro ko'chib yuruvchi aholi soni yil sayin ortib, global migratsiya bosimini oshirmoqda. 2023 yil holatiga ko'ra, dunyo bo'yicha 281 milliondan ortiq xalqaro migrant qayd etilgan bo'lib, bu jahon aholisining taxminan 3,6 foizini tashkil etadi [12].

Mehnat va majburiy migratsiya (8 ball) – rivojlanayotgan mamlakatlardan Yevropa, Rossiya va AQShga ish izlab ketish holatlari kuchaymoqda. Shu bilan birga, Suriya, Afg'oniston, Ukraina kabi davlatlardagi inqirozlar majburiy ko'chish hodisalarini kengaytirmoqda [13].

Intellectual migratsiya va ayollar oilalarining harakati (7 ball) – rivojlangan mamlakatlarga yuqori malakali mutaxassislarining ketishi (brain drain) va migratsiyaning genderli tus olishi (ayniqsa ayollar ishtirokining ortishi) dolzarb tendensiya hisoblanadi [14].

Migratsiyaning siyosiy o'zgarishi va chegaralarni nazorat qilish siyosatlarini (6–7 ball) – ko'plab davlatlar migratsiyani ichki siyosiy tortishuvlar obyektiga aylantirmoqda. Yevropa va AQShda migratsiyani cheklash bo'yicha qat'iy siyosatlar amalga oshirilmoqda, chegara nazoratida raqamli texnologiyalar va biometrik identifikatsiya vositalari keng joriy etilmoqda [15].

Integratsiya muammolari (7 ball) – qabul qiluvchi mamlakatlarda migrantlarni jamiyatga moslashtirish muammolari saqlanib qolmoqda. Bu jarayon faqat iqtisodiy emas, balki madaniy va huquqiy muammolarni ham qamrab oladi [16]. Umuman olganda, mazkur vizual tahlil migratsiya jarayonlarining ko'lamli va murakkab ekanligini, ular turli darajada siyosiy, iqtisodiy, demografik va madaniy sohalariga ta'sir ko'rsatayotganini namoyon etmoqda. Ushbu tendensiyalar xalqaro tashkilotlar, siyosiy rejalashtiruvchilar va ilmiy hamjamiyat uchun tahlil va prognozlash obyektlaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Migratsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar – bu shaxs yoki aholi guruhlarining yashash joyini o'zgartirishga bo'lgan qarorini shakllantiradigan, ularning harakatlanish dinamikasi va yo'nalishini belgilaydigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, texnologik va huquqiy shart-sharoitlar majmuasidir. Ushbu omillar o'zaro bog'liq va ko'p qirrali bo'lib, migratsiyani rag'batlantiruvchi (push-pull) yoki cheklovchi ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Migratsiyaning rivojlanishini belgilovchi asosiy omillar

Migratsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p qirrali bo'lib, ularni tizimli tahlil qilish maqsadida

xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan PESTLE-model (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik) asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir [17].

Quyida har bir omil doirasida zamonaviy migratsiya jarayonlarining asosiy sabab va tendensiyalari tavsiflanadi:

Siyosiy omillar (Political): siyosiy beqarorlik, qurolli mojarolar, davlat hokimiyatining zaifligi va inson huquqlarining buzilishi migratsiyaning majburiy shakllarini keltirib chiqaradi. Masalan, Afg'oniston, Suriya, Yamandagi uzoq davom etgan mojarolar millionlab odamlarni boshqa davlatlarga ko'chishga majbur qilgan [18]. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilinayotgan migratsiyani cheklovchi siyosatlar (Yevropa Ittifoqi, AQSh va Avstraliyada) migrantlarning huquqiy maqomini murakkablashtirmoqda [19].

Iqtisodiy omillar (Economic): ishsizlik, daromadlar pastligi, infratuzilmaning yetishmasligi va mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovut migratsiyaning asosiy "drayverlari" hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Rossiya, Janubiy Koreya va Turkiyaga mehnat muhojirlari oqimi iqtisodiy turmush darajasi bilan bevosita bog'liq [20].

Ijtimoiy omillar (Social): aholining o'sishi, yoshlar ulushining yuqoriligi, ta'lim va tibbiyot kabi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi aholini boshqa hududlarga ko'chishga undashi mumkin. Shuningdek, qabul qiluvchi mamlakatlarda ijtimoiy integratsiya masalalari, madaniyatlararo to'qnashuvlar va ksenofobiya muammolari ham dolzarbdir [21].

Texnologik omillar (Technological): zamonaviy transport va axborot texnologiyalari migratsiya jarayonlarini yengillashtirmoqda. Internet, mobil aloqa va ijtimoiy tarmoqlar orqali migratsiyaga oid ma'lumotlarni tez tarqatish, onlayn viza, biometrik nazorat va raqamli identifikatsiya tizimlari migratsiya siyosatlarida keng qo'llanilayotgan usullar sirasiga kiradi [22].

Huquqiy omillar (Legal): migratsiya jarayonlarini tartibga soluvchi milliy va xalqaro qonunchilik (masalan, 1951 yildagi Qochqinlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya, IOM va UNHCR shartnomalari) muhim ahamiyatga ega. Ammo ko'p davlatlarda migrantlar huquqlarining to'liq ta'minlanmasligi, vaqtinchalik maqomlar murakkabligi va huquqiy himoyaning yetishmasligi ko'zga tashlanadi [23].

Ekologik omillar (Environmental): iqlim o'zgarishi, suv yetishmovchiligi, qurloqchilik va tabiiy ofatlar sababli "iqlim qochqinlari" soni ortib bormoqda. IPCC hisobotlariga ko'ra, 2050 yilga borib dunyo bo'yicha 200 milliongacha kishi iqlim migratsiyasiga duch kelishi mumkin [24].

Zamonaviy migratsiya jarayonlarining PESTLE-tahlili

Omillar	Tavsif	Misolalar / Izohlar
---------	--------	---------------------

Omilar	Tavsif	Misollar / Izohlar
P – Siyosiy	Siyosiy beqarorlik, qurolli mojarolar, davlat siyosati va chegara nazorati	Afg'oniston, Sudan, Suriya kabi mamlakatlardagi mojarolar; migratsiyaga qarshi siyosat (masalan, YEI va AQShda)
E – Iqtisodiy	Ishsizlik, kam daromad, iqtisodiy noaniqlik va mintaqalar o'rtasidagi rivojlanish farqi	Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat oqimlari; Afrikadan Yevropaga iqtisodiy migratsiya
S – Ijtimoiy	Demografik bosim, aholi o'sishi, ta'lim va tibbiyot imkoniyatlarining yetishmasligi	Yosh aholining yuqori ulushi; ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligi; qabul qiluvchi mamlakatlarda ksenofobiya
T – Texnologik	Aloqa va transport vositalarining rivoji, raqamli migratsiya boshqaruvi	Internet orqali ma'lumot tarqalishi; onlayn viza, biometrik nazoratlar
L – Huquqiy	Milliy va xalqaro migratsiya qonunchiligi, huquqiy maqom murakkabligi	Xalqaro shartnomalar; migrantlar huquqlarining ta'minlanmasligi
E – Ekologik	Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, suv tanqisligi, degradatsiyalangan muhit	Suv inqirozlari; iqlim qochqinlarining o'sishi (IPCC 2022)

Xulosa va takliflar. Migratsiya murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni samarali boshqarish uchun milliy va xalqaro darajada kompleks yondashuv talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida, migratsiyani boshqarish bo'yicha milliy strategiyalarni yangilash, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish; xalqaro hamkorlikni kengaytirish — IOM, UNHCR va shu kabi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish; qabul

qiluvchi mamlakatlarda migrantlarni integratsiya qilish dasturlarini amalga oshirish — til, ta'lim va mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish; yuboruvchi mamlakatlarda ish o'rnlari yaratish, ta'lim sifatini oshirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish; migratsiya jarayonlarini raqamli platformalar va ma'lumotlar bazalari orqali muntazam monitoring qilish kabi masalalar yechimini topish zaruratini yanada dolzarblashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А.Ш. Ўзбекистонда ташки миграция жараёнларини бошқариш муаммолари // Жамият ва бошқарув. – 2021. – №2.
2. Жабборов А.М. Меҳнат миграцияси ва демографик муаммолар // Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар. – 2022. – №5. – Режим доступа: <https://iqtisodiyot.uz> (Мурожаат қилинган сана: 22.07.2025).
3. Касимов Б.Ж. Марказий Осиёда миграция ва хавфсизлик муаммолари // Халқаро муносабатлар. – 2021. – ISSN: 2010-1452.
4. Кобилова З.М. Миграция жараёнларининг гендер аспекти // Аёллар ва жамият. – 2020. – ISSN: 2181-0327.
5. Сабуrow Б.А. Қозғоғистон ва Ўзбекистонда миграция сиёсати: қиёсий таҳлил // Иқтисодий муносабатлар. – 2023. – DOI: 10.5281/zenodo.7991234.
6. Castles S., de Haas H., Miller M.J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. – 6th ed. – Palgrave Macmillan, 2020.
7. ECRE. Migration Policy Developments in Europe. – 2023// [https://unrefugees.ch/en/news/global-displacement-record-high-unhcrs-2024-global-trends-and-why-it-matters-switzerland#:~:text=According%20to%20the%20Global%20Trends,IDPs\)%2C%20and%20stateless%20people](https://unrefugees.ch/en/news/global-displacement-record-high-unhcrs-2024-global-trends-and-why-it-matters-switzerland#:~:text=According%20to%20the%20Global%20Trends,IDPs)%2C%20and%20stateless%20people).
8. European Commission. Migration and Border Management Policies. – Brussels, 2023. Миграция в ЕС: изменение маршрутов и сложности учета// <https://ru.euronews.com/my-europe/2025/01/15/migration-eu-frontex-2024>
9. ILO. Glossary of Migration Terminology. – Geneva: International Labour Organization, 2022.
10. ILO. Global Estimates on International Migrant Workers. – Geneva, 2021//<https://www.ilo.org/publications/ilo-global-estimates-international-migrant-workers-results-and-methodology> (Мурожаат қилинган сана: 22.07.2025).
11. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024. – Geneva: IOM, 2023. – Режим доступа: <https://worldmigrationreport.iom.int> (Мурожаат қилинган сана: 22.07.2025).
12. IPCC. Special Report on Climate Change and Migration. – Geneva, 2022.
13. Migration Policy Institute (MPI). Integration Challenges in Host Societies. – Washington D.C., 2023.
14. OECD. Digital Technology in Migration Management. – Paris: OECD Publishing, 2023//https://www.oecd.org/en/publications/international-migration-outlook-2023_b0f40584-en.html
15. OECD. Talent Abroad: A Review of Skilled Migration Trends. – Paris: OECD Publishing, 2022//https://www.oecd.org/en/publications/international-migration-outlook-2023_b0f40584-en.html
16. Pestle Analysis Framework. – Oxford College of Migration Studies, 2021.
17. Scholten P. Integrating Immigrants in Europe. – Springer, 2021.
18. UN DESA. International Migration 2023 Highlights. – United Nations Department of Economic and Social Affairs, Population Division, 2023. – Режим доступа: <https://www.un.org/development/desa/pd/content/international-migration-1> (Мурожаат қилинган сана: 22.07.2025).
19. UNHCR. Global Trends: Forced Displacement in 2024. – Geneva: UNHCR.